

## MEHNAT BOZORIDA AYOLLARNING IJTIMOIIY FAOLLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH: HUDUDLAR VA SEKTORLAR KESIMIDAGI TAHLIL

**Raximova Lola Shavkatovna**

*Fargʻona davlat texnika universiteti, Ishlab chiqarishda boshqaruv fakulteti,  
Menejment va marketing kafedrasida assistenti*

loladhirianor@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Oʻzbekiston Respublikasida mehnat bozorida ayollar ijtimoiy faolligi va raqobatbardoshligining asosiy koʻrsatkichlari tahlil qilinadi. Statistik maʼlumotlar asosida ayollar bandligi, ishsizlik darajasi, iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha ulushi, tadbirkorlikdagi ishtiroki, kredit resurslariga kirish imkoniyatlari va uy mehnati yuklamasi kabi mezonlar chuqur oʻrganilgan. Shuningdek, chet el va mahalliy manbalar asosida ayollarning iqtisodiy faolligiga taʼsir etuvchi omillar aniqlangan. Tadqiqot natijalariga koʻra, ayollarni mehnat bozoriga jalb etish, ularning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish va moliyaviy resurslarga kirish imkonini oshirish boʻyicha aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola natijalari bandlik siyosatini takomillashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishishda amaliy ahamiyatga ega..

**Kalit soʻzlar:** ayollar bandligi, mehnat bozori, iqtisodiy faollik, ayollar ishsizligi, raqobatbardoshlik, tadbirkor ayollar, uy mehnati, kredit resurslariga kirish, ayollar salohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy tenglik.

## ОЦЕНКА СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ И КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ЖЕНЩИН НА РЫНКЕ ТРУДА: АНАЛИЗ ПО РЕГИОНАМ И СЕКТОРАМ

**Рахимова Лола Шавкатовна**

*Ферганский государственный технический университет, факультет  
управления в производстве, кафедра менеджмента и маркетинга, ассистент*

loladhirianor@gmail.com

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются ключевые показатели социальной активности и конкурентоспособности женщин на рынке труда Республики Узбекистан. На основе статистических данных подробно проанализированы уровень занятости женщин, уровень безработицы, доля

участия по видам экономической деятельности, вовлечённость в предпринимательство, доступ к кредитным ресурсам и нагрузка по выполнению домашнего труда. Также на основе зарубежных и отечественных источников выявлены факторы, влияющие на экономическую активность женщин. По результатам исследования разработаны конкретные рекомендации по расширению участия женщин в рынке труда, увеличению их экономических возможностей и обеспечению доступа к финансовым ресурсам. Результаты статьи имеют практическое значение для совершенствования политики занятости и достижения социально-экономической стабильности.

**Ключевые слова:** *женская занятость, рынок труда, экономическая активность, женская безработица, конкурентоспособность, женщины-предприниматели, домашний труд, доступ к кредитным ресурсам, женский потенциал, социально-экономическое равенство.*

## **ASSESSING WOMEN'S SOCIAL ACTIVITY AND COMPETITIVENESS IN THE LABOR MARKET: ANALYSIS BY REGIONS AND SECTORS**

**Rakhimova Lola Shavkatovna**

*Fergana State Technical University, Faculty of Production Management, Department of Management*

*loladhirianor@gmail.com*

**Abstract:** This article analyzes key indicators of women's social activity and competitiveness in the labor market of the Republic of Uzbekistan. Based on statistical data, the study examines employment rates, unemployment levels, the share of women in various types of economic activity, their participation in entrepreneurship, access to credit resources, and the burden of unpaid domestic work. In addition, factors influencing women's economic participation are identified through the analysis of foreign and local sources. The study presents practical recommendations for increasing women's involvement in the labor market, expanding their economic opportunities, and improving access to financial resources. The results of the article have practical significance for improving employment policies and achieving socio-economic stability.

**Key words:** *women's employment, labor market, economic participation, female unemployment, competitiveness, women entrepreneurs, domestic labor, access to credit resources, women's potential, socio-economic equality.*

## KIRISH

So‘nggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi va innavatsion rivojlanishning jadallashuvi ijtimoiy tenglik va bandlik masalalariga yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Ayniqsa, ayollar mehnat bozoridagi ishtiroki, ijtimoiy faolligi va raqobatbardoshligini oshirish orqali ularning iqtisodiy hayotdagi o‘rnini mustahkamlash dolzarb masalaga aylanmoqda. Ayollar nafaqat bandlik darajasini oshirishda, balki tadbirkorlik, xizmat ko‘rsatish va innavatsion faoliyatida faol qatnashmoqda. O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, xususan, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Prezident farmoni<sup>1</sup>, shuningdek, 2030-yilgacha bo‘lgan gender tenglik strategiyasi mamalakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ayollar faolligini oshirishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab bergan<sup>2</sup>. Innavatsion iqtisodiyotga o‘tish sharoitida mehnat bozorining samaradorligi va inklyuzivligi aynan ayollar ishtirokini kengaytirish orqali ta‘minlanishi ta‘kidlanmoqda. Ayni vaqtda ayollarning iqtisodiy hayotdagi ishtiroki ortib borayotgan bo‘lsa-da, ayollar orasida ishsizlik darajasi erkaklarga nisbatan yuqoriroq. Shuningdek gender asosidagi mehnat taqsimoti, kredit olish imkoniyatlari pastligi va ularning haq to‘lanmaydigan uy mehnati bilan ortiqcha bandligi mehnat bozoriga ayollarni kirib borishiga ta‘sir ko‘rsatmoqda<sup>3</sup>.

Prezidentimizning 2023-yil 7-martdagi PQ-93-sonli qarorida ayollar bandligini oshirish, ularni zamonaviy kasblarga tayyorlash, ayol tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlashga doir kompleks chora tadbirlar belgilangan bo‘lib, ushbu hujjat mazkur muammoni hal etishga qaratilgan amaliy yondashuv sifatida e‘tirof etiladi<sup>4</sup>.

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi mehnat bozorida ayollar ishtiroki, ularning ijtimoiy faolligi va raqobatbardoshligi holati chuqur tahlil qilinadi. Hududlar kesimidagi statistic ma‘lumotlar asosida iqtisodiyotda band bo‘lgan ayollar soni, ishsizlik darajasi, iqtisodiy faoliyat turlaridagi ulushi, ayollar egalik qilayotgan firmalar, kredit resurslariga kirish darajasi hamda yakka tartibdagi ayollar soni kabi ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida mehnat bozorida ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini kuchaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

So‘nggi yillarda ayollarning mehnat bozoridagi o‘rni va ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar ularning iqtisodiy hayotdagi

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni. “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 2022–2026”. Lex.uz, 28.01.2022.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha bo‘lgan gender tenglik strategiyasi to‘g‘risida”gi qarori. Lex.uz, 2023.

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. “Mehnat bozori ko‘rsatkichlari bo‘yicha statistik to‘plam”, 2023

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-93-son Qarori. “Ayollar bandligini oshirish va tadbirkorligini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 07.03.2023.

ishtirokini har tamonlama tahlil qilish zarurligini ko'rsatmoqda. Ilmiy manbalarda ayollarning ishga joylashish imkoniyatlari, ularning kasbiy faolligi mehnatga bo'lgan motivatsiyasi, tadbirkorlikdagi ishtiroki hamda rasmiy va norasmiy bandlik shakllari alohida e'tiborga olinmoqda.

G.Becker o'zining "Oilaviy iqtisodiyot" konsepsiyasida ayollarning haq to'lanmaydigan uy mehnati tufayli rasmiy mehnat bozorida kamroq ishtirok etishini asoslab beradi. Bu holat ularning iqtisodiy faolligini cheklaydi va uzoq muddatli bandlik salohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi<sup>5</sup>.

D.Blau va L.Kahn o'z tadqiqotlarida AQSH mehnat bozorida ayollar va erkaklar o'rtasidagi ish haqi tafovutlarini va ularga sabab bo'luvchi omillarni ta'lim darajasi, ish tajribasi, kasb tanlovi va mehnatga bo'lgan yondashuvlarni chuqur tahlil qilgan. Ular ayollarning mehnat bozoridagi pozitsiyasi samarali siyosiy choralar bilan kuchaytirilishi zarurligini ta'kidlaydi<sup>6</sup>.

OECD va Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) hisobotlarida ayollarning rasmiy bandlikka kirish imkoniyatlari, norasmiy sektordagi faolligi va ijtimoiy himoyasizligi qayd etilgan. Xususan, ayollar asosan past daromadli va noaniq mehnat sharoitiga ega ish joylarida faoliyat yuritishi ularning iqtisodiy mustaqilligiga to'siq bo'layotgan omillardan biri sifatida ko'riladi<sup>7</sup>.

BMT Taraqqiyot dasturining maxsus hisobotlarida esa ayollarning kredit va moliyaviy xizmatlarga cheklangan kirish imkoniyati ularning tadbirkorlik salohiyatini to'liq namoyon qilishiga to'sqinlik qilayotgani ko'rsatib o'tilgan<sup>8</sup>.

Mamlakatimizda bu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar tobora faollashib bormoqda. Sh. Zokirova ayollarning rasmiy bandligi, mehnat bozoridagi hududiy tafovutlar, malaka darajasi va oilaviy sharoitlar bilan bog'liq to'siqlar aniqlangan. Tadqiqotda ayollarning ishsizlik darajasi yuqoriligi, uy mehnatining ularning ishga joylashuviga salbiy ta'siri qayd etilgan<sup>9</sup>.

D.Suyunov innovatsion iqtisodiyotda sharoitida ayollarni mehnat bozoriga to'liq jalb etish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun ayollr salohiyatini safarbar etish dolzarb hisoblanadi<sup>10</sup>.

<sup>5</sup> Becker G. *A Treatise on the Family*. Harvard University Press, 1991. – b. 122

<sup>6</sup> Blau, F. D. and Kahn, L. M. *Gender Differences in Pay*. Journal of Economic Perspectives, 2000. – b. 97

<sup>7</sup> ILO. *Women and Labour Markets in Transition Economies*. Geneva, 2020. – b. 33–37.

<sup>8</sup> UNDP. *Human Development Report: Gender Equality and Women's Economic Empowerment*. New York, 2022. – b. 64–66.

<sup>9</sup> Zokirova Sh. *Ayollar bandligi va mehnat bozori muammolari*. Toshkent, 2020. – b. 153.

<sup>10</sup> Suyunov D.S. *Innovatsion iqtisodiyotda mehnat bozori va ayollar faolligi*. Toshkent, 2021. – b. 44–46.12. Musayeva J.K. *Ayollar va korporativ boshqaruvda ijtimoiy rol*. Toshkent, 2019. – b. 88–92.

J. Musayeva tomonidan ayollarning tashkilotlardagi rahbarlik faolligi, qaror qabul qilishdagi ishtiroki va korporativ boshqaruvdagi roli o'rganilgan. Muallif ayollar ishtirokining ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini amslaydi<sup>11</sup>.

Ushbu xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ayollarning mehnat bozoridagi faolligi ta'minlash, ularni samarali bandlikka jalb qilish, iqtisodiy resurslarga kirishni kengaytirish nafaqat ijtimoiy adolat, balki barqaror iqtisodiy rivojlanishning ham zaruriy shartidir

## **METODOLOGIYA**

Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, ilmiy abstraksiyalash, va boshqa usullardan keng foydalanildi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, uning asosida O'zbekiston mehnat bozorida ayollar ishtirokini faollashtirish, ularning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirish va bandlikning zamonaviy shakllariga keng jalb qilish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Mazkur tavsiyalar mehnat, ayollarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash strategiyalari hamda genderga yo'naltirilgan bandlik dasturlarini takomillashtirish uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun mehnat bozorida gender tengligini ta'minlash muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayollarning mehnat bozoridagi faolligi nafaqat ularning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlaydi, balki mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishga ham xizmat qiladi. Biroq, aksariyat mamlakatlarda, ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki erkaklarga nisbatan cheklangan bo'lib, bu turli iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy omillar bilan bog'liq.

Dunyoda ishsizlik muammosi barcha davrlarda past ko'rsatkichlarda bo'lgan bo'lsada, 2022-yildan boshlab bu raqamlarni ortganini ko'rishimiz mumkin. Xalqaro Mehnat Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra global ishsizlik darajasi bu davrda 5,8% ni tashkil etdi. Bu o'tgan 20 yillik davrga nisbatan o'rtacha global ishsizlik darajasidan ancha past. 2022-yilda dunyo bo'ylab ish o'rinlari yetishmovchiligi 473 million kishini tashkil etgan bo'lib, bu rasmiy ishsizlar sonidan (205 million) ikki baravar ko'pdir.

Jins va mamlakatlarning iqtisodiy darajasi bo'yicha tahlil qilinganda, ish o'rinlari yetishmovchiligi bo'yicha tafovutlar yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Agar ishsizlik ko'rsatkichlari nisbatan bir xil saqlansa, ish o'rinlari yetishmovchiligi bo'yicha keskin farqlar kuzatiladi. Ushbu tafovut ayniqsa ayollar va kam daromadli mamlakatlarda juda katta bo'lib, iqtisodiy rivojlanish darajasi pasaygan sari yanada ortib boradi. XMT ma'lumotlariga ko'ra, eng past ish o'rinlari yetishmovchiligi yuqori daromadli mamlakatlarda kuzatiladi. Bu yerda erkaklar orasida ko'rsatkich 7,4 foiz, ayollar orasida

<sup>11</sup> Musayeva J.K. *Ayollar va korporativ boshqaruvda ijtimoiy rol*. Toshkent, 2019. – b. 88–92.

esa 9,6 foizni tashkil etadi. Ammo mamlakat daromad darajasi pasaygan sari ushbu ko'rsatkich ham ortib boradi, shuningdek, erkaklar va ayollar o'rtasidagi tafovut ham kuchayadi. Kam daromadli mamlakatlarda ayollar orasida ish o'rnlari yetishmovchiligi 24,9 foiz, past-o'rta daromadli mamlakatlarda esa 17,4 foizga yetadi<sup>12</sup>. Taqqoslash uchun, erkaklar orasida bu ko'rsatkich mos ravishda 16,6 va 11,0 foizni tashkil etadi. Ushbu darajalar o'zining yuqoriligi bilan e'tiborni tortadi, ammo ayollar orasida bu yanada jiddiyroq muammoga aylanmoqda. Ayollarning mehnat bozoridagi faolligi erkaklarnikidan ancha past darajada qolmoqda. 2022-yilda 25-54 yosh toifasidagi aholining mehnat bozorida ishtirok etish darajasida gender tafovuti 29,2 foiz punktni tashkil etgan. Xususan, ushbu yosh guruhida ayollarning ishtiroki 61,4 foizni, erkaklarniki esa 90,6 foizni tashkil qilgan. Bunday katta farqni faqatgina ayollarning ish topishdagi qiyinchiliklari bilan izohlash mumkin emas. Yaqinda yangilangan ILOSTAT ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, dunyo miqyosida ayollarning ish kuchi ishtirokini kamaytiradigan asosiy omil bu bolalarni tarbiyalashdir.

Umuman olganda, mazkur tahlillar shuni ko'rsatadiki, ayollar, ayniqsa rivojlanish darajasi past bo'lgan mamlakatlarda, ish topishda erkaklarga nisbatan ancha ko'proq qiyinchiliklarga duch kelmoqda.


Jahon bo'yicha ayollarning mehnatga jalb etilish darajasi o'rtacha 47-50% atrofida bo'lib, erkaklar orasida bu ko'rsatkich 70-75% ni tashkil etadi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda 25-54 yoshdagi ayollarning mehnatga ishtirok etish darajasi 62,3% ni tashkil etgan, erkaklarda esa bu ko'rsatkich 91,5% bo'lgan<sup>13</sup>. Bu esa gender bo'yicha ishtirok etish darajasida 29,2 foizlik farqni ko'rsatadi. Jahon Banki ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda ayollarning mehnatga ishtirok etish darajasi 47,4% ni tashkil etgan. Erkaklar va ayollar o'rtasidagi daromad farqlarida ham tafovutlar mavjud. Tafovutni mehnat daromadidagi fanlarda ko'rish mumkin. Mehnat daromadi – bu band bo'lgan shaxslarning mehnati evaziga oladigan daromadi bo'lib, iqtisodchilar uni kapital daromadidan ajratib ko'rsatadilar. Kapital daromadi aktivlar – yer, uskunalar, binolar, patentlar va boshqa mulklar orqali olinadigan foydani anglatadi. Mehnat daromadi esa yollanma ishchilarning ish haqlari hamda mustaqil ishlovchilarning daromadining bir qismini o'z ichiga oladi.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) tomonidan e'lon qilingan yangi hisob-kitoblar ilk bor global va mintaqaviy miqyosda mehnat daromadlarini gender bo'yicha tahlil qilish imkonini berdi. Mehnat daromadining gender bo'yicha taqsimlanishi bandlik darajasi, ish vaqti, kasbiy yo'nalish va boshqa omillarni hisobga olgan holda, mehnat bozoridagi uzoq muddatli nomutanosibliklar natijasini aks ettiradi. 2019-yilda olingan natijalar tashvish uyg'otmoqda: erkaklar har bir dollar ishlab topganida, ayollar atigi 51 sent daromad olgan. Gender tafovutlarini mamlakatlarning daromad darajalari bo'yicha alohida

<sup>12</sup> Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO), 2022-2023 yillar.


<sup>13</sup> Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO), 2022-2023 yillar.

ko‘rib chiqish muhim, chunki global natijalar asosan rivojlangan mamlakatlarning ta‘siri ostida shakllanadi. Past daromadli va o‘rta-past daromadli mamlakatlarda gender tafovutlari yanada keskin bo‘lib, ayollar erkaklarning har bir dollari evaziga mos ravishda atigi 33 sent va 29 sent ishlab topadi. Yuqori va o‘rta-yuqori daromadli mamlakatlarda esa bu farq nisbatan kichikroq bo‘lib, ayollarning mehnat daromadi erkaklarning har bir dollariga mos ravishda 58 va 56 sentni tashkil qiladi.



### 1-rasm. Ayollarning erkaklarga nisbatan mehnat daromadi mamlakat daromad guruhi bo‘yicha, 2019<sup>14</sup>, ( $1\$ = erkaklar darajasi$ )

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xotin-qizlarning mehnat bozoridagi ishtiroki, bandlik darajasi ishsizlik ko‘rsatkichlari muhim ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Ayollar bandligining hozirgi holati, erkaklarga nisbatan farqlarini shu bilan birgalikda yosh guruhlari kesimidagi ishsizlik darajasini ushbu bo‘limda tahlil qilinadi. Mamlakatimizda aholida ayollar ulushi 49,7% ni, mehnat resurslari tarkibida esa 45% ni egallaydi. Iqtisodiyotda band bo‘lganlar soni 14014,2 ming kishini, shundan ayollar ulushi 5840,6 ming kishini tashkil etadi.



### 2-rasm. Iqtisodiyotda band bo‘lganlar soni, ming kishi<sup>15</sup>

<sup>14</sup> Muallif tomonidan Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO), 2022-2023 yillar ma‘lumotlar bazasi asosida tayyorlandi

<sup>15</sup> Stat.uz ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Mamlatimizda iqtisodiyotda bandlar soni 2019 yildagi 13,54 million kishidan 2023 yilda 14,01 million kishiga oshgan. Shu davrda ayollar bandligi 5,61 milliondan 5,84 million kishiga o'sganini ko'rishimiz mumkin. Bu holat ayollar ishtiroking miqdoriy o'sishini ko'rish mumkin, ammo ularning umumiy bandlikdagi ulushi deyarli o'zgarmagan (taxminan 41,4% dan 41,7% gacha). Bu esa ayollar mehnat bozorida nisbatan barqaror ammo sezilarli darajada o'zgarishsiz ulushga ega bo'lib qolayotganini anglatadi.


## 1-jadval

## Hududlar bo'yicha iqtisodiyotda band bo'lgan ayollar soni, ming kishi

Ko'rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>711,3</b>	<b>707,4</b>	<b>702,6</b>	<b>714,2</b>	<b>735,5</b>
ayollar	306,1	305,6	301,6	293,6	304,1
<b>Andijon viloyati</b>	<b>1284,5</b>	<b>1225,9</b>	<b>1264,3</b>	<b>1296,8</b>	<b>1329,0</b>
ayollar	519,5	479,3	506,2	484,1	512,9
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>797,1</b>	<b>788,0</b>	<b>777,3</b>	<b>780,6</b>	<b>803,2</b>
ayollar	358,2	338,4	333,6	320,6	334,6
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>536,2</b>	<b>534,3</b>	<b>550,7</b>	<b>546,4</b>	<b>553,9</b>
ayollar	212,5	214,3	220,5	210,8	217,5
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>1220,0</b>	<b>1171,0</b>	<b>1202,5</b>	<b>1207,3</b>	<b>1220,1</b>
ayollar	464,7	435,3	444,3	452,4	463,6
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>412,7</b>	<b>399,4</b>	<b>410,4</b>	<b>410,1</b>	<b>426,4</b>
ayollar	188,0	176,9	174,0	171,0	187,6
<b>Namangan viloyati</b>	<b>1104,6</b>	<b>1088,7</b>	<b>1104,8</b>	<b>1100,6</b>	<b>1129,1</b>
ayollar	462,6	464,8	458,7	470,3	483,7
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>1455,8</b>	<b>1418,3</b>	<b>1441,3</b>	<b>1479,8</b>	<b>1504,2</b>
ayollar	564,3	558,8	567,0	587,8	600,0
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>1024,2</b>	<b>985,5</b>	<b>1001,9</b>	<b>1006,3</b>	<b>1011,2</b>
ayollar	357,9	376,5	380,2	390,4	393,3
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>350,1</b>	<b>332,2</b>	<b>334,1</b>	<b>335,0</b>	<b>338,0</b>
ayollar	140,0	134,9	135,1	136,9	139,3
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>1232,9</b>	<b>1177,2</b>	<b>1222,1</b>	<b>1204,5</b>	<b>1234,9</b>
ayollar	513,9	499,1	530,2	519,4	535,1
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>1492,6</b>	<b>1448,6</b>	<b>1483,3</b>	<b>1511,7</b>	<b>1555,4</b>
ayollar	659,4	625,8	631,7	650,6	679,9
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>736,5</b>	<b>716,4</b>	<b>726,4</b>	<b>741,8</b>	<b>776,5</b>
ayollar	309,8	305,4	310,1	324,9	<b>1396,8</b>
<b>Toshkent shahri</b>	<b>1182,6</b>	<b>1243,5</b>	<b>1317,2</b>	<b>1371,1</b>	648,0
ayollar	552,5	569,5	602,1	634,8	748,8

Hududiy kesimda tahlilda rivojlanish dinamikasi ijobiy bo'lgan hududlarni ko'rib chiqsak. Andijon viloyati ayollar bandligi 2019 yilda 519,5 mingni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilda 6,6 mingga pasaygan bo'lsada, 2020-2022 yillar oralig'ida tiklanish kuzatiladi. Farg'ona viloyatida ayollar bandligi 669,4 mingdan 679,9 mingga oshgan. Bu viloyat ayollar bandligining eng yuqori darajada bo'lgan hududlaridan biri hisoblanadi. Namangan viloyatida 2019-2023 yillar oralig'ida xotin-qizlar bandligi 21,1 ming kishiga ortganini ko'rish mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax, Navoiy viloyatlarida salbiy dinamikani yoki barqarorlik holatini kuzatish mumkin. Bu ayollar mehnat bozoridan chekinayotgan yoki rasmiy bandlik darajasining kamayganidan darak beradi.




### 3-rasm. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami bandlardagi ayollarning ulushi, %<sup>16</sup>

3-rasmida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami bandlardagi ayollarning ulushi foizda ifodalangan. Tahlil natijalari ayollar bandligining faqatgina son jihatdan emas, balki ularning iqtisodiy faoliyat sohaslarida taqsimlanishida ham sezilarli farqlar mavjud. Ta'lim tizimi ayollar mehnat bozorida eng katta ulushga ega bo'lgan sohalardan biri bo'lib, unda ayollar ishtiroki 71% ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich ijtimoiy qadriyatlar hamda ayollar uchun qulay ish sharoitlari mavjudligidan dalolat beradi. Ayollar ishtiroki yuqori bo'lgan tarmoqlar sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar(67,8%), san'at, ko'ngilochar va boshqa xizmatlar (44,9%), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (43,2%), turar joy va umumiy ovqatlanish xizmatlari (49,2%) hamda axborot va aloqa(50,1%) soxalaridir.

<sup>16</sup> <https://gender.stat.uz/uz/asosiy-ko-rsatkichlar/mehnat> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Qurilish (7,9%), elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash, suv bilan ta‘minlash(12,4%), tog‘-kon sanoati (8,8%) kabi tarmoqlarda ayollar ishtiroki past ekanligini kuzatish mumkin.

Savdo, chakana savdo(35,0%), moliyaviy xizmatlar va sug‘urta(36,7%), kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat (32,7%), davlat boshqaruvi (26,9%) tarmoqlarida xotin-qizlar ishtiroki o‘rta darajada bo‘lib, so‘nggi yillarda o‘shish tendensiyasini kuzatish mumkin.



#### 4-rasm. Hududlar bo‘yicha ayollarning ishsizlik darajasi<sup>17</sup> %

Mazkur diagramma O‘zbekistonning turli hududlarida ayollarning ishsizlik darajasini foizlarda ifodalab beradi. Statistic ma‘lumotlar hududlar kesimida mehnat bozoridagi gender tengsizlikni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Eng yuqori ayollar ishsizlik darajasi Andijon viloyatida (12%) kuzatilmoqda. Bu holat Andijon viloyatining aholisi zich joylashgan, ammo bandlik imkoniyatlari cheklangan hududlardan biri ekanligi bilan izohlanishi mumkin. Shuningdek, Farg‘ona (11%) va Samarqand (11%) viloyatlarida ham ayollar ishsizligi yuqori bo‘lib, bu hududlarda sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarining yetarlicha diversifikatsiyalanmagan ishsizlikka sabab bo‘lishi mumkin.

Toshkent va Qashqadaryo viloyatida ushbu ko‘rsatkich 9% ni tashkil etgan. Mazkur viloyatlarda sanoat infratuzilmasi mavjud bo‘lsa-da, ayollarning mehnat bozorida ishtiroki ko‘plab ijtimoiy streotiplar va bandlikdagi cheklovlar tufayli sust kechayotgan bo‘lishi mumkin.

Navoiy viloyatida (2%) ayollar ishsizligi eng past darajasi bilan ajralib turadi. Bunga viloyatda tog‘-kon sanoatining rivojlangani, hamda bu sohada gender kvotalari asosida ayollarni ishga jalb qilish siyosati sabab bo‘lishi mumkin. Sirdaryo va jizzax


<sup>17</sup> O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma‘lumotlariga muvofiq muallif ishlanmasi

viloyatlarida ham nisbatan past ko‘rsatkichlar kuzatilgan. Bu viloyatlarda kichik va o‘rta biznes subyektlarining ayollar bandligiga ijobiy ta‘sir bo‘lishi ehtimoldan holi emas.

Toshkent shahri (6%), mamlakat poytaxti sifatida ko‘plab ish o‘rinlari va iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo‘lsa-da, ayollar ishsizlik darajasi sezilarli. Bu holat mehnat bozori raqobatbardoshligi, migratsiya oqimi, hamda ayollar uchun mos ish sharoitlari yetarli emasligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Mamlakatda ayollar ishsizlik darajasi hududlar kesimida sezilarli farq qilayotganini ko‘rsatmoqda. Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, gender siyosati, madaniy qadriyatlar, ta‘lim olish imkoniyatlari va kasbga yo‘naltirish tizimi bilan bevosita bog‘liqdir.

Haq to‘lanmaydigan uy mehnati – ya‘ni bolalarga qarash, ovqat tayyorlash, tozalik ishlari, qarindoshlarga g‘amxo‘rlik qilish kabi turmushga oid vazifalarni bajarish jamiyatdagi maehnat yukining muhim, biroq ko‘pincha e‘tibordan chetda qoladigan qismini tashkil etadi. Bu turdagi mehnat ko‘pincha ayollar zimmasiga tushadi va ularning ishbilarmonlik, ta‘lim olish, sog‘liqni saqlash va boshqa ijtimoiy imkoniyatlardan foydalanish darajasiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Quyidagi grafik 2018 va 2023yillar kesimida erkaklar va ayollar tomonidan haq to‘lanmaydigan uy ishlariga sarflangan o‘rtacha soatlar sonini taqqoslaydi.




**5-rasm. Ayollar va erkaklar kesimida haq to‘lanmaydigan uy ishlarini bajarishda sarflangan o‘rtacha soatlar soni<sup>18</sup>**

<sup>18</sup> Stat.uz ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi. Ushbu ma‘lumotlar xalqaro tajribaga asosan har 5 yilda bir marta hisoblab chiqiladi va keyingi kuzatuv natijalari Statistika agentligi tomonidan 2028 yilda o‘tkaziladigan navbatdagi uy xo‘jaliklari kuzatuvi so‘roviga muvofiq shakllantiriladi.

Ayollar uy ishlariga har kuni o‘rtacha yarim kundan ko‘proq vaqt sarflamoqda. So‘nngi 5yil ichida bu yuk biroz oshgan, bu esa gender tengsizligining davom etayotganini anglatadi.

Haq to‘lanmaydigan mehnatning bu darajada nootekis taqsimlanishi ayollar uchun iqtisodiy imkoniyatlar, bo‘sh vaqt, sog‘liq va rivojlanish imkoniyatlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

So‘nngi yillarda ayollarning tadbirkorlik faoliyatidagi ishtiroki barqaror o‘shib bormoqda. Xususan ayollar tomonidan asos solingan va boshqarilayotgan firmalar mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotiga sezilarli hissa qo‘shmoqda. Bu holat gender tengligini ta‘minlash, bandlik darajasini oshirish va innavatsion rivojlanishni jadallashtirishda muhim omil bolib xizmat qilmoqda. Quyidagi grafikda turli yillarda yoki mintaqalarda ayollar egaligida bo‘lgan firmalar ulushi ko‘rsatilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkichlar orqali gender asosidagi tadbirkorlik dinamikasini baholash va tegishli siyosiy choralarni ishlab chiqish bo‘ladi.



**6-rasm. Ayollar egalik qilayotgan firmalar ulushi<sup>19</sup> %**


2018 yilda ayollar egalik qilayotgan firmalar ulushi 21,9% bo‘lgan. 2019 yilda bu ko‘rsatkich 14,9% ga tushgan bo‘lsada, 2020 yildan boshlab sezilarli o‘shish kuzatilgan. 2021 yilda ulush 38% yetib, maksimal darajaga yetgan. 2022 yilda esa bu ko‘rsatkich 29,2% ni tashkil etdi. Bu 2018 yilga nisbatan ancha yuqqori, lekin 2021 yilga nisbatan pasayish mavjud. Qashqadaryo viloyatida har yili barqaror o‘shish kuzatilgan. Xorazm viloyatida 2022 yilda 45,5% ga yetib, besh yilichida to‘rt baravarga ortgan. Andijon, Farg‘ona, Sirdaryo, Samarqand viloyatlarida ko‘rsatkichlar o‘zgaruvchan, noturg‘un. 2022 yil holatiga ko‘ra Xorazm(45,5%), Samarqand(41,1%), Qashqadaryo viloyatida (38,7%) ayollar egaligidagi firmalar ulushi eng yuqqori

<sup>19</sup> Gender.stat.uz ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi

ko'rsatkichlarni qayd qilgan. Eng past ulushga ega hududlar Sirdaryo(19,0%), Namangan(21,0%), Toshkent shahri(21,9%) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Aytish joizki, 2021 yil bu borada o'sishni korishimiz mumkin. 2022 yilda ayrim hududlarda pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, bu umumiy ijobiy trendni o'zgartirmaydi.

Innavatsion iqtisodiyot sharoitida ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha olib borilayotgan tizimli islohotlar natijasida yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'yektlari tarkibida ayollar soni izchil ortib bormoqda. Quyida 2019-2023-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan va faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlari tarkibida ayollar soni izchil ortib bormoqda. Quyida 2019-2023-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan va faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkor ayollar sonining o'sish dinamikasi tahlil qilinadi.




### 7-rasm. Davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatdan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan yakka tartibdagi tadbirkor ayollar soni<sup>20)</sup> kishi

2019-yilda mamlakatda tadbirkor ayollar soni eng ko'p qayd etilgan hududlar Samarqand(9362 kishi), Toshkent (8666 kishi), Buxoro (7324 kishi) va Qashqadaryo (7015 kishi) viloyatlari bo'lgan. 2023-yilda esa yuqoridagi hududlar irasiga Toshkent shahri ham qo'shilib, bu yerda ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkor ayollar

<sup>20)</sup> Davlat soliq qo'mitasi ma'lumoti asosida muallif ishlanmasi

soni 12047 nafarga yetdi. 2023-yilga kelib, aksariyat hududlarda ayollar tadbirkorligining barqaror o‘shish tendensiyasi kuzatildi. Ushbu statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion iqtisodiy siyosat va ayollar bandligini qo‘llab-quvvatlovchi dasturlar natijasida ayollar tadbirkorligi kengaymoqda. Ayniqsa, yirik iqtisodiy markazlar va sanoat salohiyati yuqori bo‘lgan hududlarda ayollar ko‘proq faollik ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, ayrim hududlarda bu jarayon sekin kechayotgan bo‘lib, bu holat hududiy iqtisodiy tengsizliklar va ayollarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish mexanizmlarining yetarlicha ishlamasligi bilan izohlanadi.

Moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati iqtisodiy faollik, tadbirkorlikni rivojlantirish va ijtimoiy tenglikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, ayollarning kredit resurslariga kirish imkoniyati ularning iqtisodiy mustaqilligini oshirish, oilaviy daromadni ko‘paytirish va jamiyatdagi faolligini kengaytirish uchun zaruriy shartlardan biridir.



### 8-rasm. Kredit olish imkoniyatiga ega aholi ulushi<sup>21</sup>, %

Quyidagi ma’lumotlar 2019-2023 yillar oralig‘ida ayollar orasida kredit olish imkoniyatiga ega bo‘lganlar ulushini foiz hisobida aks ettiradi. 2019 yilda O‘zbekiston bo‘yicha kredit olish imkoniyatiga ega ayollar ulushi 67,3% ni tashkil etgan. Biroq bu ko‘rsatkich yildan yilga asta sekin kamayib, 2023 yilda 65,9% ni tashkil etgan. Bu esa so‘ngi 5 yilda 1,4% pasayganini ko‘rsatadi. Bunday tendensiya ayollar uchun moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyatlari bo‘yicha muayyan muammolar mavjudligini anglatadi. Toshkent shahri (2019 yilda 72,6% bo‘lib, 2023 yilda ham eng yuqori darajada), Buxoro, Toshkent viloyatlarida ayollarning moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi boshqa viloyatlarga qaraganda yuqori bo‘lib, bu joylardagi infratuzilma, banklar tarmog‘i va moliyaviy savodxonlik darajasining yuqoriligi bilan izohlash mumkin. Suxondaryo, Qashqadaryo va Jizzax viloyatlarda kredit olish imkoniyatiga ega ayollar ulushi past bo‘lib, bu hududlardaxmoliyaviy

<sup>21</sup> Gender.stat.uz ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

xizmatlarning yetarli darajada emasligi, axborot yetishmovchiligi sabab bo'lishi mumkin.

So'nggi 5 yil ichida ayollar orasida kredit olish imkoniyati mamlakat bo'yicha barqaror pasayish tendensiyasini ko'rish mumkin. Qishloq hududlarida istiqomat qiluvchi ayollar kredit olish imkoniyati pastroq, bu davlat moliyaviy institutlar tomonidan ayollar uchun kredit siyosatini hududiy jihatdan muvozanatlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, ayollar moliyaviy savodxonligini oshirish, garovsiz kreditlar tizimini rivojlantirish va bank xizmatlariga kirishni yengillashtirish kabi chora tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Joriy yilda 253,2 ming ayol ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lib, "Ayollar daftari"ga kiritildi. Ulardan 131,2 ming nafari ish, 36,4 ming nafari kasb-hunar ta'limi, 69,9 ming nafari kredit va 15,7 ming nafari qishloq xo'jaligi faoliyatiga ehtiyoj bildirdi.

Hozirgacha mehnat bozoridagi 8 ta ustuvor yo'nalish bo'yicha 77,8 ming ayolga yordam ko'rsatilib, 21,2 ming nafari ishga joylashtirildi, 16,2 ming nafari jamoat ishlarida band etildi, qolganlari esa kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitildi. Shuningdek, 4,8 ming ayol ishsizlik nafaqasini oldi.

Bu tizim ayollarni ish bilan ta'minlash, ularning barqaror daromad olishlariga yordam berish va kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan.

## **XULOSA**

Mazkur tadqiqotda ayollar mehnat bozoridagi ishtiroki, ularning iqtisodiy faolligi va raqobatbardoshlik darajasini o'rganish orqali, jamiyatda gender tenglikka emas, balki ayollarning o'ziga xos iqtisodiy holatiga yo'naltirilgan strategik yondashuv zarurligi aniqlashtirildi. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha mavjud statistik ma'lumotlar, xalqaro tajribalar va tahliliy yondashuvlar asosida olib borilgan tadqiqot quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirishga asos bo'ldi. Ayollar bandligi tarkibiy va hududiy nomutanosibliklarga ega bo'lib, hududlar bo'yicha tahlil ayollar bandligining ayrim viloyatlarda yuqori, boshqalarida esa past darajada saqlanib qolayotganini ko'rsatdi. Bu esa mintaqaviy mehnat bozori infratuzilmasining notekis rivojlanganini anglatadi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ayollar o'rtasida ishsizlik darajasi erkaklarga nisbatan doimiy ravishda yuqoriroq bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, yosh ayollar, farzand parvarishi bilan band bo'lganlar yoki rasmiy kasb-hunar ta'limiga ega bo'lmaganlar ishsizlik xavfiga ko'proq duch kelishmoqda. Ayollar iqtisodiy faolligi ko'plab ijtimoiy omillar bilan cheklangan. Uy-ro'zg'or ishlari, farzand parvarishi, ijtimoiy stereotiplar ayollarni rasmiy ish faoliyatidan cheklab qo'ymoqda. Bu esa ularning iqtisodiy mustaqilligini pasaytiradi va norasmiy sektorga turtki bo'ladi. Tadbirkor ayollar sonining yildan yilga o'sib borayotgani ijobiy holat bo'lishiga qaramay, ularning faoliyati ko'proq mikro va kichik biznes doirasida cheklangan, yuqori rentabellik darajasiga ega sohalarda esa ayollar ishtiroki kam.

Tadqiqot asosida quyidagi amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Ayollar uchun moslashtirilgan kasb-hunar ta'limi dasturlarini ishlab chiqish va mintaqaviy ehtiyojlarga mos ravishda amalga oshirish. Bu orqali malaka darajasi past bo'lgan ayollarni samarali bandlikka jalb etish imkoniyati ortadi. Ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish, ya'ni imtiyozli kreditlar, grantlar va investitsiya dasturlarini genderga yo'naltirilgan holda kengaytirish, uy mehnatini statistik hisobga olish tizimini yaratish va bu mehnat turini tan olish orqali ayollar uchun ijtimoiy kafolatlar tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Ish joylarida moslashuvchan grafik, masofaviy ish imkoniyatlari va onalik himoyasiga oid tartiblarni kengaytirish orqali ayollar mehnatga kirishini rag'batlantirish, mehnat bozorida ayollar raqobatbardoshligini oshirish uchun innovatsion texnologiyalarga asoslangan kasblarga tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish va amalga tatbiq etish tavsiya etiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni. "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 2022–2026". Lex.uz, 28.01.2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha bo'lgan gender tenglik strategiyasi to'g'risida"gi qarori. Lex.uz, 2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. "Mehnat bozori ko'rsatkichlari bo'yicha statistik to'plam", 2023.
4. BMT Taraqqiyot Dasturi va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamkorligidagi Gender tahlillari hisoboti, 2022.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-93-son Qarori. "Ayollar bandligini oshirish va tadbirkorligini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". 07.03.2023.
6. Becker G. *A Treatise on the Family*. Harvard University Press, 1991. – b. 122
7. Blau, F. D. and Kahn, L. M. *Gender Differences in Pay*. Journal of Economic Perspectives, 2000. – b. 97
8. ILO. *Women and Labour Markets in Transition Economies*. Geneva, 2020. – b. 33–37.
9. UNDP. *Human Development Report: Gender Equality and Women's Economic Empowerment*. New York, 2022. – b. 64–66.
10. Zokirova Sh. *Ayollar bandligi va mehnat bozori muammolari*. Toshkent, 2020. – b. 153.
11. Suyunov D.S. *Innovatsion iqtisodiyotda mehnat bozori va ayollar faolligi*. Toshkent, 2021. – b. 44–46.
12. Musayeva J.K. *Ayollar va korporativ boshqaruvda ijtimoiy rol*. Toshkent, 2019. – b. 88–92.

13. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO), 2022-2023 yillar.
14. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO), 2022-2023 yillar.
15. <https://yuz.uz/uz/news/mehnat-bozorida-xotin-qizlarning-orni>